The Use of Modern Management Methods in the Management of Housing Stock in the Digital Economy Conditions	976
Mamanazarov Oybek Shomurodovich, Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda yoshlarning roli	982
Beknazarov Bekzod Baxtiyor o'g'li	
Korxonalarda innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etish yo'nalishlari	987
Gafurova Umida Fatixovna	
Davlat boshqaruvi tizimi va hududiy rivojlanish o'rtasidagi munosabatlar	992
Tolibjon Qazaqov Sharifjon o'g'li	
Sanoat korxonalarining strategik iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash	996
Uktamov Xusniddin Faxriddinovich	
Tijorat banklarida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi	1000
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
Tadbirkorlik muhiti tahlili va uni davlat tomonidan tartibga solish shart-sharoitlari	1005
S. T. Toshaliyeva, A. M. Abduraxmonov	
Учет поступления и списания с учета основных средств в бюджетных организациях	1010
Абдуллаева Нилуфар Джавдат кизи	
Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini takomillashtirish.....	1015
Sa'dullayeva Asaxon Muzaffarovna	
Davlat budjetining soliqsiz daromadlari shakllanishini takomillashtirish yo'llar.....	1018
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Sog'liqni saqlash tizimini davlat tomonidan moliyalashtirishning zaruriyati.....	1022
Meliyev Azimjon Murodullo o'g'li	
Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishda ichki audit xizmatining zarurligi	1027
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
Hududlarda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy asoslari.....	1032
Tangriberdiyev Sulaymon Kamiljonovich	



OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHDA ICHKI AUDIT XIZMATINING ZARURLIGI



Shaymatova Nargiza Ashurovna
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ichki audit xizmati oliy ta'lim tashkilotlarini samarali boshqarishning asosi hisoblanadi. Auditorlar davlat resurslarini samarali va to'g'ri boshqarilishini baholash orqali oliy ta'lim tashkilotlarining javobgarligi, hisob ma'lumotlarining haqqoniyligi va faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Mazkur maqolada ichki audit xizmatining oliy ta'lim tashkilotlaridagi roli va bu orqali bajaradigan nazorat usullari hamda asosiy tarkibiy qismlariga e'tibor qaratilgan. Yuqorida qayd etilgan jihatlarni tadqiq etish natijasida ichki audit xizmati faoliyati oliy ta'lim tashkilotlarining o'z maqsadlariga natijali, samarali, iqtisodiy va axloqiy tarzda erishish imkonini beradi. Shu bilan birga, oliy ta'lim tashkilotlarining jamoatchilik oldida hisobdorligi va shaffofligini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: audit, boshqaruv faoliyati, ichki audit, mablag'lar, oliy ta'lim tashkiloti, samaradorlik, xo'jalik faoliyati, hisobot.

Abstract: Internal audit service is the basis of effective management of higher education organizations. Auditors serve to improve the accountability, accuracy, and performance of higher education institutions by evaluating the effective and proper management of public resources. This article focuses on the role of the internal audit service in higher education organizations and the control methods and main components of it. As a result of researching the aspects mentioned above, the activity of the internal audit service allows higher education organizations to achieve their goals effectively, efficiently, economically and ethically. At the same time, it ensures public accountability and transparency of higher education organizations.

Key words: audit, management activity, internal audit, funds, higher education organization, efficiency, economic activity, report.

Аннотация: Служба внутреннего аудита является основой эффективного управления организациями высшего образования. Аудиторы служат для улучшения подотчетности, точности и производительности высших учебных заведений, оценивая эффективное и правильное управление государственными ресурсами. В данной статье рассматривается роль службы внутреннего аудита в организациях высшего образования, а также методы контроля и основные компоненты ее. В результате исследования указанных выше аспектов деятельности службы внутреннего аудита позволяет организациям высшего образования эффективно, результативно, экономично и этически достигать своих целей. В то же время он обеспечивает общественную подотчетность и прозрачность организаций высшего образования.

Ключевые слова: аудит, управленческая деятельность, внутренний аудит, фонды, организация высшего образования, эффективность, хозяйственная деятельность, отчет.

KIRISH

Boshqaruv faoliyati oliy ta'lim tashkilotining o'z maqsadlariga erishishdagi bajariladigan amallarini baholash, boshqarish va monitoring qilish uchun boshqaruv organi tomonidan amalga oshiriladigan jarayonlar va tuzilmalarning kombinatsiyasi sifatida qaraladi. Oliy ta'lim tashkilotlarida boshqaruv faoliyati, maqsadlarni belgilash va unga erishishga qaratilgan. Shuningdek, u oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatiga oid axborotlarning ishonchiligi va ko'rsatiladigan xizmatlarning adolatligini ta'minlash orqali oliy ta'lim tashkilotlari xodimlarining korupsiya xavfini kamaytiradigan faoliyatni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyati va hisobot berish munosabatlari vazirlik va oliy ta'lim tashkiloti miqyosida bir-biridan farq qiladi. Oliy ta'lim tashkilotlarida audit faoliyati xizmati smetalar ijrosi jarayoni, o'qitish faoliyati, hisob obyektlarining mavjud holati va ulardan samarali foydalanish holati, xarid jarayonlarini haqqoniyligi, tashkilot bo'linmalarining hisobdorligining ahamiyatini ochib beradi. Ichki audit xizmati oliy tashkilotlari faoliyatining barcha darajalarini qamrab oladi va belgilangan maqsadlarga erishish mumkin bo'lgan imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish uchun zarur bo'lgan asosiy elementlarni aniqlaydi.



Vazirlikning ichki audit xizmati esa, tizim tashkilotlari (milliy va xorijiy hamda hududiy oliy ta'lim tashkilotlarining faoliyatini o'rganadi va tizimdagi muammolarni aniqlab, ularning yechimini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, budget mablag'ini taqsimlovchi organ sifatida u davlat budjeti hisobidan tizim tashkilotlariga ajratilgan maqsadli moliyalashtiriladigan loyihalarning samarali amalga oshirilishini jaryoni audit o'tkazadi. Vazirlik rahbariyatining tizimni boshqarish bilan bog'liq qabul qilinadigan qarorlarini ishonchligini ta'minlaydi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida ichki audit xizmatining roli birinchi navbatda boshqaruv faoliyati doirasida nazorat, tushunish va bashorat mezonlari mas'uliyatini baholash. Nazorat oliy ta'lim tashkilotlarining vazifalarini amalda bajarilishini hal etadi va davlat sektorida korrupsiyani aniqlash hamda oldini olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi. Oliy ta'lim tashkilotlarida qaror qabul qiluvchi shaxs yuqori rahbariyatga davlat dasturlari, siyosati, faoliyati va natijalarini mustaqil baholashni ta'minlaydi, bashorat qilish, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar, xavf va muammolarni aniqlaydi. Auditorlar ushbu vazifalarning har birini to'g'ri bajarishi uchun o'z faoliyatini amalga oshiradi hamda tizimdagi islohotlar bilan hamnafas holda ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirib borish zaruriyatini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tashkilotlarini boshqarishda ichki audit xizmatining ahamiyati borasida aksariyat hollarda xorijlik olimlarning izlanishlarini ko'rishimiz mumkin. Xususan, Leman Kulievaning izlanishlariga ko'ra, "jamoat vakillari sifatida faoliyat yurituvchi budget tashkilotlari xodimlari o'zlarining majburiy vazifalari, resurslardan foydalanish va jamiyatning talablarini qondirish uchun javobgardirlar. Samarali auditorlik faoliyati amalga oshirilgan operatsiyalar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni kamaytishiga olib keladi. O'rganilayotgan tashkilotning rahbarlari shaxsi auditorga oliy ta'lim tashkilotining buxgalteriya hisobini xolisona baholash va resurslardan belgilangan maqsadlarga muvofiq foydalanilish holatini baholaydi" [2].

Essay Saucening qarashlari bo'yicha "ichki audit orqali moliyaviy hisobotning ishonchligini moliyaviy axborotdan foydalanuvchilarga ko'rsatish zarurati turli sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Bular:

- manfaatlar to'qnashuvi: xodimlarning resurslar va vakolatlardan muassasa manfaatlaridan ko'ra o'z manfaatlariga muvofiq foydalanishi.
- masofa: muassasa rahbari operatsiyalarni bevosita kuzata olmaydi
- murakkablik: muassasa direktori faoliyatni nazorat qilish uchun texnik tajribaga ega emas.
- xatolar: band bo'lgan ish jarayonlarida xatolarga yo'l qo'ygan xodimlar" [3].

Douglas F. Prawittning izlanishlari bo'yicha "ichki audit – bu tashkilot rahbariyatining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligini yoki boshqaruv amaliyotining mustaqil va obyektiv taqdim etilishini baholash"dan [4] iborat.

L.L.Lisic boshchiligidagi olimlar "Audit taftish komissiyalari ochiq kompaniyalarning moliyaviy va axloqiy yaxlitligini mustahkamlash uchun nazoratni ta'minlash uchun tuziladi. Ushbu nazorat jarayoni samarali boshqaruv uchun juda muhim bo'lganligi sababli, davlat tashkilotlarida ham taftish komissiyasi kerak. Bundan tashqari, davlat tashkilotlarining o'ziga xos shartlariga qarab, taftish komissiyalari turli xil boshqaruv qoidalari doirasida ishlaydi" [5] deya fikr mulohazalarini bildirishgan.

Johnathan Magrane "taftish komissiyasi ichki va tashqi audit ish rejalari va natijalarining mustaqil ravishda tekshirilishini ta'minlash, auditorlik ehtiyojlarini baholash va auditorlarning tashkilot bilan munosabatlariga vositachilik qilish orqali davlat sektori audit faoliyatining mustaqilligi, halolligi va samaradorligini sezilarli darajada mustahkamlaydi. Bunda, audit xizmati natijalarining e'lon qilinishi va taklif qilingan yaxshilanishlar yoki tuza-tuvchi harakatlar ko'rib chiqilishi yoki hal qilinishini ta'minlaydi" [6], deb nazarda tutilmoqda.

A.Ostonokulov budget tashkilotlarining davlat xaridlari jarayonida ichki auditning zarurligi va ahamiyatini nazariy hamda amaliy jihatdan ochib bergan. Bunda, xaridlar bilan bog'liq shartnomalarning tuzilishi, tovar (ish va xizmat)larning yetkazib berilishi, tomonlarning o'zaro hisob-kitoblarining haqqoniyligi va qonuniyligi audit xizmati tomonidan o'rganiladigan asosiy obyekt sifatida asoslab berilgan [8].

Bizningcha, ichki audit – oliy ta'lim tashkilotlarini samarali boshqarishda sohaga oid tashkilotning o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erishish va vazifalarni bajarish uchun ajratilgan resurslardan maqsadli foydalanish holati va nazorat qilish tizimi to'g'risida axborot beruvchi faoliyat hisoblanadi. Oliy ta'lim tashkilotlaridagi ichki audit xizmati bilan vazirlikning ichki audit xizmati faoliyati ularning tashkil etish maqsadlaridan kelib chiqib farqlanadi.

TADQIQOT USULLARI

Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishda ichki audit xizmatining zarurligi doirasidagi izlanishlarda kuzatish, qiyoslash, analiz va sintez, deduksiya va induksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, guruhlashtirish, manbalarni sharhlash, tizimli yondashuv kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Ichki audit xizmati budget tashkilotlarida uning faoliyat turiga qarab o'z vazifalarini belgilaydi. Oliy ta'lim tashkilotlari misolida olib qaraydigan bo'lsak, oliy o'quv yurtlari o'z daromad va xarajatlar smetalari asosida ma'lum miqdorda budgetdan moliyalashtiriladi. Bundan tashqari, to'lov-kontrakt mablag'lari, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, innovatsion ishlanmalari va grand loyihalari mablag'lari asosida ham ma'lum miqdorda moliyalashtiriladi.

Oliy ta'lim tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilarning O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti hisobidan xarajatlari budgetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida va ularning xarajatlar smetalari ko'rsatilgan maqsadlarda amalga oshiriladi ^[1].


Oliy ta'lim tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'lari – qonunchilikda nazarda tutilgan budgetdan tashqari manbalar hisobidan tashkilotlar ixtiyoriga kelib tushadigan mablag'lardir. Budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha alohida-alohida daromadlar va xarajatlar smetalari tuziladi hamda moliya yili davomida amalga oshiriladi.

Demak, oliy ta'lim tashkilotlarini budget va budgetdan tashqari mablag'lari hisobini yuritilishi, rejalashtirilishi, sarflanishi yuzasidan joriy nazorat qilinishi lozimdir.

Oliy ta'lim tashkilotlarida budget va budgetdan tashqari mablag'lar sarfini nazorat qilish, budget va budgetdan tashqari mablag'lardan oqilona foydalanishni ta'minlash bevosita hisob ishlarini tashkil qilish va yuritish orqali amalga oshiriladi. Budget tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar oliy ta'lim tashkilotlarining daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yanada takomillashtirishni talab etadi ^[7].

Oliy ta'lim tashkilotlarining hisob yuritish shakli, bir nechta smetalar asosida topshiriladigan hisobotlari, moliyalashtirish manbalari ko'p tarmoqliligidan kelib chiqib, oliy ta'lim tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil etishning ahamiyati yanada yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.

Oliy ta'lim tashkilotlarida ichki audit xizmatini ushbu masalalarini tartibga solish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil 21-avgustda PQ-3231-sonli "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning asosiy maqsadi budget muassasalarida budget jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, budgetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo'ysunuvidagi muassasalarda budget intizomini mustahkamlash borasidagi mas'uliyatini oshirish, shuningdek zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e'tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo'li bilan budget qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining rolini tubdan qayta ko'rib chiqishdir.



1-rasm: Oliy ta'lim tashkilotlarida ichki audit xizmatining boshqaruv xodimlari va boshqa xodimlar bilan o'zaro munosabatlari¹

Oliy ta'lim tashkilotlarida ichki audit xizmati tomonidan boshqaruvning ishonchliligi uchun taqdim etiladigan xizmatlar quyidagilardir:

- tekshirilayotgan shaxslarga nisbatan mustaqil munosabat va tekshirilayotgan obyektga obyektiv munosabat;

¹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan



- muhim va tegishli dalillarni to'plash va tahlil qilish uchun tizimli jarayonlardan foydalanish;
- natijalarni shakllantirish mezonlarini taqqoslash;
- keng tarqalgan professional audit standartlaridan foydalanish.

Bizningcha, ichki audit – bu oliy ta'lim tashkiloti faoliyatini yaxshilash va qiymat qo'shish uchun mo'ljallangan mustaqil, obyektiv va ishonchli maslahat olish faoliyati hisoblanadi. Ichki nazorat bu oliy ta'lim tashkilotiga xavflarni boshqarish va boshqaruv jarayonlarining samaradorligini baholash va yaxshilashga tizimli yondashuvni keltirib chiqarib, o'z maqsadlariga erishishga yordam beradi. Ichki audit javobgarlik munosabatlariga xizmat qiladi.

Har bir oliy ta'lim tashkiloti ichki nazorat sub'ektlari muayyan vaziyatga mos kelishini aniqlash uchun boshqaruv tuzilmasini baholashi kerak. Ba'zi, oliy ta'lim tashkilotlarida ichki nazorat sub'ektlari bo'ysinuvchi vazirlik va idoralar hamda ularning quyi tuzilmalarida ichki nazorat sub'ektlari bo'lsa, ular tomonidan belgilanadigan a'zolaridan iborat ichki nazorat sub'ektlari mavjud bo'ladi. Ichki nazorat xizmatiga bo'lgan ehtiyoj individual holatlarga, auditorlik faoliyatining xususiyatiga va yuqori turuvchi organ yoki kuzatuvchi kengashning qaroriga bog'liq bo'ladi. O'rganish ichki audit xizmatining ish sohasidagi ayrim amaliyotlari quyidagilardan iborat:

- belgilangan vazifani bajarish uchun ishni rasmiy tashkil etish;
- audit, moliya, risk va nazorat bo'yicha bilimga ega bo'lgan mustaqil a'zolari kiritish;
- audit uchun mas'ul bo'lgan bosh auditor va boshqa auditorlardan butunlay mustaqil bo'lgan a'zolaridan taftish komissiyasini tuzish;
- tashkilot yoki tashkilotning xavf-xatarlarni boshqarish, boshqaruv tizimining ta'sirchanligini, boshqaruv va me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini baholash;
- tashkilotning ichki audit faoliyatini yetarlicha resurslar bilan ta'minlash, ichki audit shartnomasi va audit rejalarini tasdiqlash, auditorlik faoliyati natijalarini baholash, auditorlarni tayinlashga rozilik berish maqsadida nazoratni ta'minlash;
- tashkilotni budget hisobi standartlariga muvofiq o'z faoliyatini amalga oshirayotganligini tekshirish;
- tashkilotning boshqaruv kengashi yoki yuqori turuvchi idoralarga muntazam hisobot berish.

Oliy ta'lim tashkilotlarining ichki audit xizmati tashkilot faoliyatini nazorat qilish bilan bir qatorda, uning ish faoliyatini qonun doirasida olib borish, daromad va xarajatlari smetalarini tuzish, tashkilot faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida o'z maslahat va tavsiyalarini berish bilan ham shug'ullanadi. Shu sababdan, ichki audit xizmatiga ta'rif berayotganimizda uning professional xizmatlarini ham alohida ta'kidlab o'tishni joiz topdik. Chunki oliy ta'lim tashkilotlarining nazorati davlat moliyaviy nazorat xizmati tomonidan ham olib boriladi. Ichki audit xizmatining asosiy jihati esa, davlat moliyaviy nazoratidan farqli ravishda oliy ta'lim tashkilotlari uchun yordamchi sifatida nomoyon bo'lishidir.

Yuqoridagi ta'riflardan ichki audit xizmatining ahamiyati yuqoriligini anglashimiz mumkin. Ko'p hollarda oliy ta'lim tashkilotlarining ichki audit xizmati va davlat moliyaviy nazoratini o'zaro bir-biriga o'xshatib yoki adashtirib quyishadi. Lekin, ular aslida bir-biriga o'xshamagan funksiyalar va vazifalarga ega.

Ichki audit xizmati bu tashkilotning faoliyatidagi nomutanosibliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish va kerakli maslahat, tavsiyalarni berib borish va doimiy monitoring o'tkazish bilan xarakterlanadi. Davlat moliyaviy nazorati - budget to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar buzilishlarini aniqlash maqsadida moliyaviy nazorat obyektlarining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarni o'rganish, tahlil qilish hamda taqqoslash bilan shug'ullanadi.

XULOSA

Oliy ta'lim tashkilotlarida ichki audit xizmati yaxshi davlat boshqaruvining kaliti bo'lganligi sababli, ichki audit ajratilgan mablag'larning o'z vaqtida va to'g'ri foydalanish jarayonini baholashda juda muhim vositadir. Oliy ta'lim tashkilotining barcha moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga javob berishi uchun oliy ta'lim tashkilotining ichki audit xizmati har tomonlama qamrab olishi kerak. Oliy ta'lim tashkilotining faoliyatini xolis va mustaqil baholash uchun ichki audit jarayoni zarur. Ayrim oliy ta'lim tashkilotlarida faqat ichki audit mexanizmi mavjud bo'lsa, ayrimlarida ichki audit xizmati mavjud emas. Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyati nafaqat, ichki audit balki, tashqi audit (davlat moliyaviy nazorat) tomonidan ham o'rganiladi va baholanadi. Ushbu o'rinda ichki audit oliy ta'lim tashkilotlarini samarali boshqarishda muhim sanaladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyati va hisobot munosabatlari turli faoliyat sohalari bo'yicha amalga oshiriladi. Oliy ta'lim tashkilotlarining o'z faoliyatini amalga oshirishi hamda mablag'lardan samarali



foydalanish hamda samarali boshqarishni ta'minlash, iqtisodiy va axloqiy jihatdan, shuningdek, belgilangan mezonlarga muvofiq, jamoatchilik oldida hisobot berish va axborotlarni oshkor qilish majburiyatlarini bajarishga xizmat qiladi.

Natijada oliy ta'lim tashkilotlari ichki audit xizmati faoliyatiga oid mas'uliyatni ta'minlash va boshqaruvga oid asosiy qadriyatlarni saqlab qolish, rahbarlar va mansabdor shaxslarning o'z faoliyatini shaffof, adolatli, halol va tenglik asosida olib borishini ta'minlash orqali davlat boshqaruvini mustahkamlaydi. Davlat boshqaruvining barcha darajalaridan mansabdor shaxslar asosiy elementlarga javob beradigan mustaqil audit funksiyalarini tashkil etish orqali samarali auditorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashlari kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan).
2. Leman Quliyeva. Effectiveness of Internal Audit in The Public Sector. Accounting and Auditing. –2021. –p. 1-6.
3. Essay Sauce. Essay: Internal audit effectiveness. Essay Sauce for Students: all the Ingredients of a Good Essay 24 November 2019.
4. Douglas F. Prawitt. Internal audit quality and earnings management. The Accounting Review 84(4). –September 2008. – p. 1-8.
5. Lisic, L. L., Neal, T. L., Zhang, I. X., Zhang, Y. (2016). CEO power, internal control quality, and audit committee effectiveness in substance versus in form. Contemporary Accounting Research 33 (3): 1199-1237.
6. Johnathan Magrane. Audit Committee Effectiveness: A Public Sector Case Study. Managerial Auditing Journal. 2010 25(June). –P. 427-443
7. Shaymardanova D. "Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari, ular bo'yicha smetalarni tuzish va ijrosi hisobining xususiyatlari" Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. –№2, 2017-y.
8. Ostonokulov Azamat Abduraimovich. (2023). Audit inspections of state purchases and contracts signed on the basis of tender in budgetary organizations. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 2(2), 99–112. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/view/1134>
9. Ostonokulov, A. A., & Abduraxmonov, I. (2019). Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini takomillashtirish masalalari. XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali, 1.
10. Ostonokulov Azamat Abduraimovich. (2024). THEORETICAL ASPECTS OF INTERNAL AUDIT IN PUBLIC SECTOR SUBJECTS. Web of Technology: Multidimensional Research Journal, 2(2), 77–82. Retrieved from <https://webofjournals.com/index.php/4/article/view/813>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.